



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 18 - aprel

VI-56-38-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag`lar ajratish to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel kungi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-5072-sonli va O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag`lar ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-5072-sonli va O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 18-mart kundan 7-apreligacha qadar o`tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo`yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`i A.Ergashevning axboroti;

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-117-sonli qaroriga asosan Buvayda tumaniga har biri **2** mingtadan ortiq ovoz to`plagan, lekin g`olib bo`lmagan **8 ta** takliflarni moliyalashtirish uchun **9 475 mln** (*to`qqiz milliard to`rt yuz yetmish besh million*) so`m qo`shimcha mablag` ajratilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 19-iyul kungi VI-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-sonli qaroridan kelib chiqib, "Ochiq budjet" axborot portalida "**ENG KO'P**" ovoz olib avtomatik tarzda g'olib sifatida **7 800,0 mln** (*yetti milliard sakkiz yuz million*) so'mlik **8 ta** loyiha tanlab olingan hamda har biri 2 mingtadan ortiq ovoz to'plab g'olib bo'la olmagan **9 475 mln** (*to'qqiz milliard to'rt yuz yetmish besh million*) so'mlik **8 ta** jami **16 ta** loyihalar "g'olib" deb topilsin.

3. Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilli ro'yhat" 1-ilovaga va jihozlar sotib olish reestri 2 – va 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda:

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik;
- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-sonli qaroriga asosan jihozlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishning oxirgi muddati **iyul oyi** hamda qurilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishning oxirgi muddati **avgust oyi** etib belgilab qo'yilsin.

4. Tasdiqlangan manzilli ro'yhat asosida:

- Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbasi bo'yicha "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;
- Tuman hokimligi hisobxonasi Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;
- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta hujjatlari asosida

belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati va tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq budjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023 yil 18 apreldagi
VI-56-38-11-154-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Buvayda tumani bo'yicha "Tashabbusli budget" loyihasining 2-mavsumi
natijalariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni
moliyalashtirish bo'yicha tavsiyaviy**

MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag'	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot	
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni				
			Buvayda tumani jami		xxx	127 421	17 275	17 275		
1	00135642011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Cho'mbog'ish MFY hududidagi Bunyodkor ko'chasini 2200 metr va Mushtariy ko'chasini 800 metr jami 3000 metr masofasni asfaltlash uchun	Buvayda tumani Cho'mbog'ish MFY	Qurilish-ta'mirlash	11364	1 000	1 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
2	00122059011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Cho'mbog'ish MFYda Obihayot, Shodlik, Iqtidor va Yoshlik ko'chalarining jami 3000 metr ichki yo'llarini asfaltlash	Buvayda tumani Cho'mbog'ish MFY	Qurilish-ta'mirlash	12032	1 000	1 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
3	0015799011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Cho'mbog'ish mfy hududidagi Shirin suv ko'cha 500 m, Birdamlik ko'cha 800 m, Chumbog'ish ko'cha 1040 m jami 2340 metr yo'llarni shag'allash va asfaltlash.	Buvayda tumani Cho'mbog'ish MFY	Qurilish-ta'mirlash	12083	800	800	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
4	00130038011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Xo'jaobod MFY hududi dagi Ziyinat ko'chasi 550 metr, Olmazor ko'chasi 2000 metr, Qabriston yo'li ko'chasi 450 metr jami 3000 metr ichki yo'llarni shag'allashtirish va asfaltlashtirish zarur	Buvayda tumani Xo'jaobod (Xo'jao'ldi) MFY	Qurilish-ta'mirlash	11239	1 050	1 050	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
5	00122887011	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish yoki ta'mirlash (transformator, simyog' och o'rnatish) tadbirlari	Farg'ona viloyati Buvayda tumani Ponsod MFY Bo'yoqchi qishlog'idagi Birodarlar va Billur ko'chalarini elektrotizimini taminlash. Mahallaga 2 ta 200 lik TP transformator, 70 ta yangi biton sim yog'ochlar, 4000 metr elektor tok o'tkazuvchi sim kabellar, ko'chalarni yorituvchi ko'cha chiroqlari bilan taminlash.	Buvayda tumani Ponsod MFY	Qurilish-ta'mirlash	10748	800	800	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	G'olib

6	0013447011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Farg'ona viloyati Buvayda tumani Qo'rg'onobod mfyga qarashli Sevinch ko'chasi 1500 metr Xiyobon ko'chasi 1000 metr yangi turmush 500 metr qismini taminlash yordam ko'rsatish iltimos qilaman	Buvayda tumani Kurgonobod MFY	Qurilish-ta'mirlash	11148	1 050	1 050	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
7	00130192011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Cho'taka MFY, Damariq qishlog'i ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan 1) "Ijodkor yoshlar" ko'chasiga 1300 metr; 2) "Tashabbus" ko'chasiga 1050 metr; 3) "Nurli xayot" ko'chasiga 550 metr; 4) "Ozod diyor" ko'chasiga 300 metr. Umumiy uzunlikda 3200 metrdan iborat asfalt qoplamasi yotqizilishi lozim.	Buvayda tumani Cho'taka MFY	Qurilish-ta'mirlash	13125	1 100	1 100	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	G'olib
8	00144279011	Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	Ingirchoq MFY Tol qishloq qishlog'ini ichimlik suvini yaxshilash uchun 1 dona ichimlik suvi qudug'i qazish 1 dona suv minorasi o'rnatish 1 dona KBA 100 TP ishlarini bajarish	Buvayda tumani Ing'irchok MFY	Qurilish-ta'mirlash	10841	1 000	1 000	Suv ta'minota va oqava suv ob'yektlari qurilishi bo'yicha injining kompaniyasi UK xududiy boshqarmasi	G'olib
9	00111905011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	1970 yilda Farg'ona viloyati Buvayda tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi 340 o'rinli o'quv binosi qurilgan. Hozirda 749 nafar o'quvchi 2-simenada o'qib kelmoqda. 2019 yilda mahalla xomiyarlari yordamida 280 o'rinli o'quv binosini 1-qavati qisman qurildi. Moliyaviy yetishmovchilik sababli qolgan qurilish ishlari oxiriga yetkazilmadi. Shu sababli open byujet loyihasida qatnashib, bizni loyixamizga ijobiy qarashlaringizni so'raymiz.	Buvayda tumani Qoratepa MFY	Qurilish-ta'mirlash	4317	1 200	1 200	Yagona buyurtmachi injining kompaniyasi (GUKS)	Shartli
10	00144127011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	39-maktabga ukuv xonasi va faolla zali kurish uchun.	Buvayda tumani Buvayda MFY	Qurilish-ta'mirlash	3636	1 100	1 100	Yagona buyurtmachi injining kompaniyasi (GUKS)	Shartli
11	00139910011	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish (tuman yoki shahar qiyofasini o'zgartirish) bilan bog'liq tadbirlar	Buvayda MFY markazi qiyofasini o'zgartirish	Buvayda tumani Buvayda MFY	Qurilish-ta'mirlash	6993	1 200	1 200	Yagona buyurtmachi injining kompaniyasi (GUKS)	Shartli
12	00138086011	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Elobod MFY xududida joylashgan 1-son kasb-hunar maktabining moddiy texnika bazasini rivojlantirish uchun zarur jixozlar sotib olish	Buvayda tumani Elobod MFY	Xarid qilish	3427	1 200	1 200	Buvayda tumani 1-son kasb-hunar maktabi	Shartli
13	0011147011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Beshterak MFY da joylashgan 26-umumta'lim maktabining eshik va romlarini almashtirish va joriy tamirlash.	Buvayda tumani Beshterak MFY	Qurilish-ta'mirlash	5011	1 200	1 200	Yagona buyurtmachi injining kompaniyasi (GUKS)	Shartli
14	00118838011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Pishag'ar MFY ichki yo'llarini asfaltlash. Maktabga olib boruvchi asosiy yo'l hamda qabriston yo'llarini asfaltlash zarurdir. Ichki yo'llarning jami uzunligi 4 km ni tashkil etadi.	Buvayda tumani Pishag'ar MFY	Qurilish-ta'mirlash	2294	1 200	1 200	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	Shartli

15	00133597011	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Buvayda tumani 21-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirdan chiqarish	Buvayda tumani Tepalik MFY	Qurilish-ta'mirlash	2103	1 200	1 200	Yagona buyurtmachi injiniring kompaniyasi (GUKS)	Shartli
16	00142143011	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Buvayda tuman oqqo'rg'on MFY hududida joylashgan Buvayda tuman 2-son kasb-hunar maktabini moddiy texnika bazasini rivojlantirish kerakli jihozlar sotib olish	Buvayda tumani Oqqo'rg'on MFY	Xarid qilish	7060	1 175	1 175	Buvayda tumani 2-son kasb-hunar maktabi	Shartli

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023 yil 18 apreldagi
VI-56-38-11-154-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Buvayda tuman bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 00138086011 (1-son kasb-hunar maktabi) loyihani amalga oshirish harid qilinadigan tovar (xizmatlar)

REESTRI

№	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	mln.so'm
				Summasi
1	Yengil avtomobil trinajori	2	60,0	120
2	Yengil avtomobil trinajori kompyuterlar to'plami	2	30,0	60
3	Yakka tartibdagi avtomobil boshqarishni o'rganish uchun yengil avtomobil	2	100,0	200
4	Traktorchi-mashinist kasbini o'rganish uchun mini traktor	2	60,0	120
5	Tikuvchilik kasbini o'rganish uchun tikuv mashinalar to'plami	2	75,0	150
6	Avtomobil shassesiga texnik xizmat ko'rsatish	2	60,0	120
7	Traktorchi mashinistga xizmat ko'rsatish dasgohlari	2	55,0	110
8	Innovatsion ta'lim uchun elektron doska	3	3,3	10
9	Innovatsion ta'lim uchun televizor	3	10,0	30
10	Innovatsion ta'lim uchun videoprojektor	6	6,0	36
11	Boshqaruv xodimlari uchun kompyuter to'plami	6	10,0	60
12	Innovatsion ta'limni boshqarish uchun televizor	1	64,0	64
13	Informatika fanini o'rganish uchun kompyuter to'plami	2	60,0	120
Loyihaning amalga oshirish qiymati				1200

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023 yil 18 apreldagi
VI-56-38-11-154-K/23-son
qaroriga
3-ilova

Buvayda tuman bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 00142143011 (2-son kasb-hunar maktabi) loyihani amalga oshirish bo'yicha harid qilinadigan tovar(hizmatlar)

REESTRI

				ming so'mda
№	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Traktorchi-mashinist kasbini o'rganish uchun traktor sotib olish	1	600,0	600,0
2	Traktorchi-mashinist kasbini o'rganish uchun mini traktor sotib olish	1	200,0	200,0
3	Innovatsion xona uchun mebellar to'plami (elektron doska,videoprojektor)	1	150,0	150,0
4	O'quvchilar uchun kompyuter sotib olish(bir komplekt)	1	145,0	145,0
5	Traktorchi-mashinist kasbga xizmat ko'rsatish dastgohlari(bir komplekt)	1	80,0	80,0
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati				1175,0

Buvayda tuman 2-son kasb-hunar maktabi direktori

M.Qoraboyev

Bosh xisobchi

A.Xasanov